

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-5/3

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

| | |
|---|-----|
| Muxammadjonova N.I. The role of the innovative methods in the teaching foreign language in the higher education | 199 |
| Mustapaqulov S.U. Texnik mexanika fanini o'qitishda talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati | 202 |
| Nafetdinov Sh.Sh., Ochilova M.A., Sultonova N.O'. "Tuproqning morfologik belgilari" mavzusini o'tishda klaster metodidan foydalanish | 204 |
| Narbekova R., Narbekov F. The importance of vocabulary in language learning and how to be taught | 207 |
| Nazarova N.G. Pragmatik kompetensiya talabalarning xorijiy tildagi kommunikativ kompetensiyasining strukturaviy komponenti sifatida | 210 |
| Nazarova Yo. The role of intercultural competence in foreign language teaching | 213 |
| Nematova N.M. Animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tilini o'qitish texnologiyasi tizimi | 215 |
| Norova B.Yu. Interactive educational technologies in the teaching foreign language | 217 |
| Rozibaeva D.A. Technology of teaching agricultural terms | 219 |
| Ruzmetova M.A. Features of teaching english language on the basis of distance learning | 222 |
| Saydaliyeva M.A. O'quvchilarning ingliz tilida og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishga mo'ljallangan mashqlar va topshiriqlar tizimi tahlili | 224 |
| Sharapova G.Sh., Rasulova M.I. T Interference of mother tongue in learning English | 227 |
| Sharopova Z.F. O'zbek tilini sohalarda qo'llanish bo'yicha talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish tizimi | 229 |
| Turdiyeva K.U. The importance of innovative technologies in learning foreign languages | 231 |
| Tursunova F. The main aspects of the formation of socio-cultural competencies of students in foreign language classes | 234 |
| Tuychiyev A. O'yinlar vositasida o'quvchilarda intizomli munosabatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari | 236 |
| Umarova F.N. Modern methods for the development of communicative competencies of the english language of students in the engineering union | 238 |
| Umarxodjayeva D.M. The role of independent work of students in the teaching a foreign language | 240 |
| Usmonova M.S. Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish | 243 |
| Xojaniyazova B.M. Effective methods of teaching english in non-philological areas | 246 |
| Xoliqova L.F. Filologik ta'lim yo'nalishlaridagi talabalarning tadqiqot qobiliyatini (PBL) loyiha asosida o'rganish metodining samaradorligini aniqlash | 249 |
| Атаев У.Э. Инновационные методы и технологии учебного процесса на уроках русского языка в школах с узбекским языком обучения | 251 |
| Ахмадова Ч.Б. Ёшларни фаол жисмоний ривожлантириш жараёнлари | 254 |
| Бобоходжаев Р.Х. Характерные особенности лингвистических задач студентов на основе информационного моделирования | 256 |
| Бурхонова С.Т. Значение преподавания истории в учебных заведениях | 258 |
| Исматова М.Ш. Мустакил таълимда "очик-ёпиқ саволлар" коучинг моделларидан фойдаланиш | 260 |
| Майдырова А.Б., Таджиева С.У. Цифровая грамотность – как фактор повышения человеческого капитала преподавателей ВУЗов | 263 |
| Махкамова М.Ю., Арипова Н.А., Холмаматова Л.А., Турдебекова Р.Ш. Об актуальных проблемах подготовки современного творческого педагога дошкольного образовательного учреждения | 266 |
| Нишонов У.И., Парпиева М.М. Инновационные решения для преподавания русского языка в высших технических учебных заведениях | 270 |
| Саттарова С.Н., Марупов Ш.Н., Аллярова Д.К. Кредитно модульная система в ВУЗах | 273 |
| Сулайманова Н.Дж. Междисциплинарная связь феномена оценивания | 276 |
| Ташкенбаев Т.Т. Прагматический аспект целей обучения русского языка как иностранного языка в технических вузах | 278 |
| Халмаматова Л.А., Курбанова Н.Б., Ходжаева С.А. Профессиональные качества руководителей в сфере образования | 281 |
| Худойбердиева А.Х. Условия развития творческого мышления младших школьников в инновационной образовательной среде | 284 |

7.Talabalarning bilimini umumlashtirish va sistemalashtirishda innovatsion axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni amalga oshirish talab etiladi.

Axborot texnologiyasi - bu turli masalalar yechimini topish maqsadida axborotlarni yig'ish, qayta ishslash, saqlash, ifodalash, taqsimlash, uzatish va uni istemolchiga yetkazib berish jarayonlarini kompyuter va telekommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshiradigan, tartibga solingan va tashkillashtirilgan tizim va amaliy dasturlar majmuasi. Barcha fanlar kabi umumkasbiy fanlarni o'qitishda ta'linda yangi axborot texnologiyalardan foydalanish, talabalarning nazariy bilimlarni puxta va yaxshi o'zlashtirishiga, malaka va ko'nikmalarni shakllanishiga hamda ularni amaliyotda mustahkamlashga imkoniyat yaratadi, turli modellar asosida o'qitishning noan'anaviy shakl, uslub va vositalardan foydalanishga yordam beradi.

Xulosa. Yuqoridagilarni ta'kidlagan holda talablarni amalga oshirish talabalardan tabiatning qonuniyatlarasi asosida fikrlashni, nazariy va amaliy ko'nikmalarni ya'ni fan nuqtai nazaridan ularning kompetentligini hosil qilishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Ta'lism to'g'risida"gi Qonun. 1997 yil.
2. "Ta'lism to'g'risida"gi Qonun asosida ta'lism-tarbiya samaradorligini oshirish. Metodik tavsiyalar to'plami.2001
3. Bibitov N. "Texnik mehanika", o'quv qo'llanma. T.O'qituvchi-2008 y.
4. Пармонов А.Э., Шодмонкулов З.А. Оилада китобхонлик ва мутолаа маданиятини шакллантириш – халқaro баҳолаш дастурининг мухим талаби. "ТА'ЛИМ ФИДОЙИЛАРИ" Илмий-услубий журнали, барча соҳалари, 4-сон, 1-жилд, апрель 2021. Ўзбекистон. (с. 570-572)
5. Nabeyiv A.A.,va boshqalar "Texnik mehanika" Toshkent "Davr" nashriyoti,7 y. 280 b.
6. Journal of new century innovations Volume – 19 | issue - 7 December - 2022 "Texnik mehanika" fanini o'qitish jarayonida interfaol uslublarni qo'llash// <http://newjournal.org/index.php/new/article/view/2075>
7. Вестник науки и образования № 7(61). Часть 3. 2019. Об одном инвариантном многозначном отображении в управляемых колебательных системах.
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/ob-odnom-invariantnom-mnogoznachnom-otobrazhenii-v-upravlyayemyh-kolebatelnyh-sistemah/viewer>

UO'K 378.1

"TUPROQNING MORFOLOGIK BELGILARI" MAVZUSINI O'TISHDA KLASTER METODIDAN FOYDALANISH

Sh.Sh.Nafetdinov, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

M.A.Ochilova, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

N.O'Sultonova, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada tuproqning asosiy belgilariga alohida to'xtalib o'tilgan hamda "Tuproqning morfologik belgilari" mavzusini o'tish jarayonida klaster metodini qo'llash ta'lism samaradorligini yanada oshirishi haqida batassil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tuproq morfologiyasi, klaster metodi, zamonaviy ta'lism texnologiyasi, tuproq profili.

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется основным характеристикам почвы и подробно объясняется, как использование кластерного метода в процессе прохождения темы «Морфологическая характеристика почвы» повышает эффективность образования.

Ключевые слова: морфология почв, кластерный метод, современная образовательная технология, почвенный профиль.

Abstract. This article focuses on the main characteristics of the soil and explains in detail how the use of the cluster method in the process of passing the topic "Morphological characteristics of the soil" increases the effectiveness of education.

Key words: soil morphology, cluster method, modern educational technology, soil profile.

Bugungi kunda qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lism-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi o'qitish metodlarini qo'llash imkoniyatlari yaratilmoqda va ta'lism jarayonida tadbiq etilib kelinmoqda. Buning natijasida dars samaradorligi ortib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi hamda yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishi yaxshilanadi.

Xususan o'qitish jarayonida klaster metodidan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lism amaliyotida foydalinishotgan klaster metodi talabalarning fikrlashini kengaytiradi, muammoning to'g'ri yechimini topishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda o'tilayotgan mavzuni o'quvchilarga bayon qilish davomida uzviylik va ketma ketlikni ta'minlashda yordam beradi. Klaster metodi orqali

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI –5/3-2023

talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari, ijodkorligi va faolligi, nazariy hamda amaliy muammolarga bo'lgan qarashlari rivojlanadi.

Mazkur metodni "Tuproqning morfologik belgilari" mavzusini o'tish davomida qo'llash qanchalik samaradorligini ko'rib chiqamiz.

Tuproq morfologiyasi deganda, uning tashqi ko'rinishini izohlovchi belgilar tushuniladi. Tuproqning morfologik belgilariga: tuproq profili tuzilishi, alohida gorizontlar qalinligi, qatlamlar rangi, namligi, donadorligi (strukturasi), mexanik tarkibi, qovushmasi, yangi yaralmasi va qo'shilmasi kiradi. Tuproqning morfologik belgilari asosan tuproqning hosil bo'lish, rivojlanish xossalarni izohlaydigan muhim ko'rsatkichdir.

Tuproq profilini o'rganishda avvalo, uning morfologik belgilari muhim ahamiyatga ega. Bu orqali tuproq paydo qiluvchi jarayonlarni hamda ayrim gorizontlar tarkibi, xossalari, xarakteri asosida tuproq tiplari, tipchalari va turlarini aniqlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari tuproqlarning morfologik belgilari ularning ichki xossalari bilan bog'liq bo'lib, kimyoviy tarkibi va fizikaviy xossalarni ham bildiradi hamda qisman o'rganishga yordam beradi.

Tuproq profili-tuproq genetik gorizontlarining vertikal yo'naliш bo'yicha muayyan tarzda almashinib turishi natijasida yuzaga keladigan tashqi qiyofasidir. Tuproq profilini tashkil etuvchi genetik gorizontlar o'ziga xos tashqi morfologik belgilari bilan ajralib turadi. Tuproqlar, sodir bo'ladigan ichki jarayonlarni, ularning paydo bo'lishini va rivojlanish tarixini etadigan, mafologik belgilariga ega. Ana shu belgilar assosida tuproqlarni ona jinsidan va bir biridan farqlab ajratish hamda tuproq paydo bo'lish jarayonlarining borishi, uning jadalligi haqida umumiyl tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Tuproq gorizontlari-tuproq paydo bo'lish jarayonlari natijasida paydo bo'ladigan va odatda yer yuzasiga parallel yo'nalgan, deyarli bir xil tuzilishli hamda o'zining morfologik belgilari bilan ajralib turuvchi tuproq qatlamlaridir. Tuproq profilida bir qancha gorizontlar ajratiladi va ular ham qator gorizontchalarga bo'linadi. Har bir gorizont o'zining nomi va harfli belgilariga ega.

Tuproqning genetik qatlamlini V. V. Dokuchaev A—ustki, B—o'tuvchi, C—tuproq osti kabi uch xil genetik qatlamga bo'ladi.

Ko'pchilik tuproqlarda, odatda har bir genetik katlam bir necha qatlamchalarga ajratiladi. Bu holda ular A1, A2, B1, B2 ishoralari bilan belgilanib, ularning morfologiyasi xarakterlanadi.

Tuproq va genetik qatlamlari qalinligi: Tuproqning umumiy qalinligi deb, uning yuzasidan boshlab to ona jinsgacha bo'lgan gorizontlarning sm da ifodalangan yig'indisiga aytildi. Tuproq deganda faqat ustki chirindili qatlam tushunilmaydi balki tuproq paydo qiluvchi jarayon ta'sirida o'zgargan va morfologik belgilariga ko'ra ona jinsdan farq bo'lgan ma'lum qalinlikdagi qatlam (A0+A1+A2+B1+B2) tushuniladi. Shuning uchun tuproqning qalinligi uning tipiga ko'ra, o'rta hisobda 40 sm dan 150 sm gacha bo'ladi va u yuqoridan pastga tomon santimetrik bilan o'lchanadi. Ammo, O'tra Osiyoning qadimdan sug'orilib kelinayotgan madaniy voha tuproqlarining qalinligi 250-300 sm va undan ham oshishi mumkin.

Tuproqning rangi: Tabiatda uchraydigan tuproq tiplari, xillari va ularning ayrim qatlamlari o'ziga xos rangga ega bo'lib, bu ularning eng muxim morfologik belgilaridan hisoblanadi. Tuproqning rangi uni tashkil etadigan moddalar tusi hamda tuproqning fizik holati va namlik darajasi bilan aniqlanadi. Tuproqning rangini belgilovchi eng muhim moddalarga gumus, temir va kremnezyom birikmalari kabilar kiradi.

Tuproqlar ko'pincha rangiga qarab nomlanadi. Masalan, kashtan tuproq, qizil tuproq, bo'z tuproq va boshqalar. Tuproqning rangi uning kimyoviy tarkibi va chirindi moddalariga karab o'zgaradi. Tuproq tarkibida organik modda—chirindi qancha ko'p bo'lsa, uning rangi shuncha qoramitir bo'ladi.

Tuproqning mexanik tarkibi: Tuproqning mexanik tarkibi deb, har xil kattalikdagi mineral zarralarning bir-biriga bo'lgan nisbatiga aytildi. Tuproq mexanik tarkibi asosiy qismining 1 mm dan kichik zarrachalari tuproqning mayda zarrachalari (melkozem), 1 mm dan yirik zarralari tuproq skeleti deyiladi. Tuproq zarrachalarining miqdoriga qarab ajratish mexanik tarkibiga ko'ra tasnifi (klassifikatsiyasi) deyiladi. Bunda kattaligi 0,01 mm bo'lgan zarrachalar miqdori asosiy mezon hisoblanadi. Odatda 0,01 mm dan kichik bo'lgan zarrachalar fizik loy, 0,01 mm dan yirik bo'lgan zarrachalar fizik qum deb yuritiladi.

Tuproqning mexanik tarkibi ham tuproqning muxim morfologik belgilaridan biri bo'lib, yerni ishlash, ekinlarni suqorish va tuproq unumdonorligini oshirishga yordam beradi.

Tuproq strukturasi: Tuproqning alohida agregatlar (zarrachalar) ga ajralib ketishiga tuproq donadorligi (strukturasi) deyiladi. Bu agregatlar turli mexanik elementlarning bir-biriga birikishidan hosil boladi. Tuproq agregatlari-mayda zarrachalarning bir-biri bilan birikishi natijasida (1 mm dan


10 mm gacha) donadorlik shakllanadi. Donadorlik makroagregatlarning kattaligi va shakliga qarab quyidagilarga bo'linadi:

mikrodonadorlik — zarrachalar diametri 0,25 mm dan kichik;

makrodonadorlik — zarrachalar diametri 0,25 mm dan 10 mm gacha;

megadonadorlik — zarrachalar diametri 10 mm dan katta.

Tuproq qovushmasi: Har qaysi qatlamdagi zarra va bo'lakchalar zichligining xarakteri va darajasi tuproq qovushmasi deyiladi. Bu ona jinsning tarkibiga, tuproqning organik va mineral tarkibiga, mexanik tarkibiga, donadorligiga, namlik darajasiga bog'liq bo'ladi.



Tuproq qovushmasiga ko'ra: Juda zich, zich, g'ovak, sochilma holatlarida bo'ladi.

Juda zich qovushma-tuproq chuqurini belkurak bilan kovlashning deyarli imkon yo'q. Zich qovishma-chuqur belkurak yoki ketmon yordamida ancha qiyinlik bilan kovlanadi. Bunday zichlik og'ir qumoq va soz mexanik tarkibli tuproqning illyuvial gorizonti uchun xarakterlidir. G'ovak qovushma-chuqur oson kovlanadi, belkurak bilan tashlangan tuproq mayda bo'laklarga sochilib ketadi. Uvoqli donador, strukturali qumoq va soz tuproqlar hamda yetilib ishlov berilgan tuproqlarning haydalma qatlami uchun xosdir. Sochilma qovushma-qumli va qumloq tarkibili tuproqlarning quruq haydalma garizontlari uchun xarakterlidir.

Tuproqning namligi – absalyut quruq tuproq massasi yoki hajmiga nisbatan foiz hisobida ifodalangan suv miqdoridir. Tuproqning namligi undagi suv zaxirasini, sug'orish muddatlarini aniqlash va tuproqga ishlov berish uchun aniqlaniladi. Tuproq namligiga ko'ra- ho'l, nam, namxush, quruq bo'lishi mumkin.

Tuproq qo'shilmasi – tuproq poyda bo'lish jarayoniga hech qanday aloqasi bo'lмаган, keyinchalik qo'shilib qolgan mineral, tog' jinsi parchasi hamda organik qoldiqlar singari moddalar tuproq qo'shilmasi deyiladi.

Xayvonlarning suyagi, turli chig'anoqlar, o'simliklarning qoldig'i kabilar biologik qo'shilma hisoblanadi. Tosh, shaqal kabilar esa mineral qo'shilma bo'ladi. Bulardan tashqari, uy-ro'zqor asboblarining siniqlari, ko'mir bo'lakchalari, uy hayvonlari suyaklari va insonlarning suyaklari kabi narsalar arxeologik qo'shilma deyiladi.

Tuproqning yangi yaralmasi: Tuproq paydo bo'lish jarayonida vujudga kelgan, shakli va tarkibi har xil bo'lган turli holatdagi birikmalar yangi yaralma deyiladi. Tuproqda boradigan fizikaviy, kimyoviy biologik jarayonlar natijasida o'simlik va hayvonot olamining bevosita ta'siridan hosil bo'lishiga ko'ra, kimyoviy va biologik yangi yaralmalar ajratiladi.

"Turoqning morfologik belgilari" mavzusini o'tishda yuqorida bayon etilgan tuproqning asosiy morfologik belgilarini talabalarga qiziqarli, tushunarli tarzda izchillik va ketma-ketlik asosida tushintirish mobaynida yangi pedagogik texnologiyalarda keng qo'llanib kelinayotgan klaster metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa va takliflar:

O'qitish jarayonida amalga oshiriladigan klaster metodi puxta ishlab chiqilgan strategiya bo'lib, undan talaba bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida qo'llash mumkin. Shu orqali pedagok o'tilgan dars haqidagi yangi bilimlarning talabalar tomonidan qisqa vaqt ichida samarali o'zlashtirilganligiga amin bo'ladi.

Masalan, talabalarni yangi materiallar bilan tanishish yoki o'rganish bosqichi biroz murakkabroq jarayon hisoblanadi. Ammo bu jarayonda klaster metodi qo'llanilsa, ya'ni "Tuproqning morfologik belgilari" mavzusi klaster metodi orqali o'tilishi o'qituvchi uchun ham, talaba uchun ham oson va tushunarli bo'ladi.

Bundan tashqari klaster metodi talabalarda aqliy sikrash, hozirjavoblik, tarqoq tushunchalarning aniq bir zanjir asosida tizimga solish hamda ma'lumotlarni tez ilg'ash kabi qobiliyatlarini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev H.A., Tursunov L.T. Tuproqshunoslik asoslari. T-1994y.
2. Xoliqov Sh., Uzoqov P., Boboxo'jayev I. Tuproqshunoslik. T-2013y.
3. Avliyoqulov X.A., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. T-2012y.
4. V.I. Savich, SH.SH. Nafetdinov, "Information and energy assessment of genesis and fertility soil", European journal of molecular and clinical medicine, bet 9857-9860.
5. SH.SH. Nafetdinov, M.A. Ochilova, N.O'.Sultonova, G.H. Karimova, "Tuproq kesmasi mavzusini o'tishda klaster metodidan foydalanish", Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi 2023-2/3, bet 114-117.
6. SH.SH. Nafetdinov, M.A. Ochilova, N.O'.Sultonova, G.H. Karimova, "Using the cluster method in passing the subject of the soil" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Modern problems of geography: Integration of science and education, Azerbayjon, Baku, noyabr 29-30 2022. Bet 73-75.

UDC 37.012

THE IMPORTANCE OF VOCABULARY IN LANGUAGE LEARNING AND HOW TO BE TAUGHT

R.Narbekova, Jizzakh State Pedagogical University

F.Narbekov, Jizzakh Branch of National University of Uzbekistan

Annotatsiya. So'z boyligini oshirish til o'rganish jarayonining muhim qismidir. Bugungi kunda so'z boyligini oshirishning bir qator innovatsion usullari mavjud. Ushbu maqolada so'z boyligini oshirish yo'llari va uning ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: lug'at, tirishqoqlik, o'yin, til, usul, kommunikatsiya.

Аннотация. Увеличение словарного запаса является важной частью процесса изучения языка. На сегодняшний день существует ряд инновационных способов увеличения словарного запаса. В этой статье рассматриваются способы увеличения словарного запаса и его значение.

Ключевые слова: лексика, активность, игра, язык, метод, коммуникация.

Abstract. Increasing vocabulary is an important part of the language learning process. Today there are a number of innovative ways to increase vocabulary. This article discusses ways to increase vocabulary and importance of it.

Keywords: vocabulary, activity, game, language, method, communication.

Introduction. When teaching the formal side of the language - its grammar, phonetics and word formation, it is important to keep in mind that the form of a word is not only its outer shell in relation to it. But it does affect its content. So, if we take a sentence and begin to change, for example, the form of a verb, then we can make a real action possible, desirable, etc., and, by making a word that carries a phrasal stress unstressed, completely change the purpose and meaning of the statement. Thus, the form of a word constitutes unity with its meaning, influences it, and therefore the study of form is of such great importance in language.